Namuna

<date_open>

Bank omonati shartnomasi № <Num>

Omonat daftarcha № <Clerk_Ser> <Clerk_Num>

"Agrobank" ATB nomidan ___ sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi bankning _____viloyat _____filiali boshqaruvchisi _____bir tomondan va Omonatchi <Name> ikkinchi tomondan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining bank omonatiga oid 43-bobi (759-770-moddalari) qoidalariga asosan ushbu shartnomani tuzdilar.

1. Shartnoma predmeti.

Ushbu shartnoma bo‘yicha Bank Omonatchidan qabul qilib olgan yoki uning nomiga kelgan pul summasini (omonatni) qabul qilib oladi va ushbu shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida hamda tartibda omonat daftarchasi taqdim etilganda omonat summasini qaytarish, unga foizlar to‘lash va omonatchining omonat hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini boshqa shaxslarga o‘tkazish to‘g‘risidagi topshirig‘ini bajarish majburiyatini oladi. Shartnoma ommaviy hisoblanadi. Bank va Omonatchi ushbu Shartnomani bajarish doirasida sanksiya qonunchiligining qo‘llaniladigan normalariga, shu jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda, rioya qilish majburiyatini o‘z zimmalariga olishlarini tasdiqlaydilar:

– BMT Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyalari;

– Yevropa Ittifoqi, Amerika Qo‘shma Shtatlari (OFAC), Buyuk Britaniya (OFSI) tomonidan joriy etilgan sanksiya rejimlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi.

2. Maxsulot shartlari.

2.1. Omonat turi: Muddatli; 2.2. Omonat nomi: **Progress;** 2.3. Omonatni saqlash muddati: 13 oy ; 2.4. Omonat foizi: 18 % yillik; 2.5. Omonatni qaytarish muddati: omonat ochilgan sanadan 13 oy; 2.6. Omonatni summasi: _____; 2.7. Omonat hisobvarag‘i: _____; 2.8. Valyuta turi – so’m; 2.9. Omonat mijoz talabi bilan muddatidan oldin qaytarib olinganda, saqlangan muddatlarga mos ravishda: - 1 kundan 1 oygacha TQO bo’yicha (0%); - 1 oydan 13 oygacha yillik 17 (O’n yetti)% miqdorida qayta hisob-kitob qilinadi;	2.10. Omonat ochish uchun mablag‘ning eng kam miqdori 500 000.00(Besh yuz ming) so‘m; 2.11. Omonatga qo‘shimcha mablag‘ kiritish imkoniyati mavjud emas. 2.12. Oylik foizlarni kapitalizatsiya qilish: mavjud emas; 2.13. Omonatdan qisman yechish imkoniyati mavjud emas; 2.14. Omonatni avto-uzaytirish: mavjud emas; 2.15. Foizlar har oyda naqd pulda yoki mijoz hohishiga ko’ra mijozning “Agrobank” joriy filialida ochilgan plastik kartasiga to’lab beriladi.

3. Bankning majburiyatlari.

3.1. Omonatchini omonat turiga oid Nizom/Tartib talablari bilan tanishtiradi;

3.2. Bank, omonatning turidan qat’i nazar, omonatchi talabiga binoan o‘rnatilgan tartibda omonat summasini to‘liq yoki uning bir qismini berishi shart.

3.3. Bank omonat bo‘yicha xizmat ko‘rsatish davrida iste’molchi (mijoz)ning og‘zaki yoki yozma so‘rovi olingan kundan e’tiboran bir ish kuni ichida unga quyidagi axborotlarni yozma shaklda omonat bo‘yicha (axborot berilgan sanasini ko‘rsatgan holda) oyda bir marta bepul taqdim etiladi:

- axborot berilgan sanaga omonat qoldig‘i;

-axborot berilgan sanaga omonat bo‘yicha hisoblangan va to‘langan foiz summasi.

3.4. Hisobvaraqdagi pul mablag‘larining xavfsizligini va yaxlitligini ta’minlaydi.

4. Bankning huquqlari.

4.1. Sud-huquq tizimi va tergov organlaridan ijro hujjatlari kelib tushganda, omonatchining e’tirozlariga qaramay, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda choralarni ko‘rish, bunda, pul mablag‘larini xatlash, pul mablag‘larini akseptsiz tartibda hisobdan chiqarish, hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatish;

4.2. Omonatchining hisobvaraqlari bo‘yicha pul mablag‘lari xatolik bilan qabul (kirim) qilingan holatlari aniqlanganida, qaytarish uchun omonat hisobvarag‘i bo‘yicha hisoblangan va to‘langan mukofotlarni akseptsiz tartibda yechib olish;

4.3. Bank yangiliklari, shuningdek, omonatchining muddatli omonat hisobvarag‘i bo‘yicha amalga oshirilgan operatsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni SMS ko‘rinishida Ariza/So‘rovda ko‘rsatib o‘tilgan omonatchining mobil raqamiga yoki pochta xabari sifatida elektron manzilga yuborish;
4.4. Bank omonat bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib qo‘yishga, mablag‘larni blokirovka qilishga yoki Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli, agar:
(a) Omonatchi sanksiyalar ro‘yxatiga kiritilgani ma’lum bo‘lsa;
(b) omonat bo‘yicha operatsiyalar Bankning xalqaro sanksiyalar qonunchiligini buzishiga olib kelishi mumkin bo‘lsa;
(c) Omonatchi ma’lumotlarni taqdim etish talablarini buzganda;
(d) mablag‘lar manbasi sanksiyalar yoki AML/CFT muvofiqligi nuqtayi nazaridan shubha uyg‘otganda.
4.5. «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq, bank, omonatchidan uning muddatli omonat hisobvarag‘i bo‘yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalarni qonuniyligini tasdiqlovchi ma’lumot va hujjatlarni taqdim etilishini talab qilish hamda omonat hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni va foizlar hisoblanishini to‘xtatib turish yoki ularni amalga oshirishdan bosh tortish huquqiga ega;
4.6. Bank sanksiya organlari tomonidan kiritilgan cheklovlar natijasida Omonatchining ko‘rgan zararlari uchun javobgar bo‘lmaydi.
4.7. Agar Omonatchi ushbu band qoidalarini buzsa, Bank omonat shartnomasini bekor qilish to‘g‘risida yozma bildirishnoma yuborish orqali shartnomani suddan tashqari bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli.

5.Omonatchining majburiyatlari.

5.1. Mazkur Shartnoma shartlari bilan tanishib chiqish;
5.2. Shartnoma tuzilish sanasiga mazkur shartnomaning 2.6-bandda ko‘rsatilgan summani omonat hisobvarag‘iga kirim qilish;
5.3. Omonatchi o‘ziga tegishli ma’lumotlar (F.I.SH; manzili, telefon raqami o‘zgarganda, shuningdek, shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari) yangilanganda 3-bank kuni davomida Bankni yozma ravishda xabardor qilish va yangi hujjatning aslidan nusxasini taqdim qilish;
5.4. Omonatchi omonatga qo‘yilgan summani qaytarib berishni talab qilish niyatida bo‘lsa, o‘zining bu niyatidan bankni omonatni olishni mo‘ljallayotgan sanadan kamida bir oy oldin xabardor qilishi lozim;
5.5. Bank tomonidan (baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash) hamda boshqa shartlar asosida tashkil etiladigan yutuqli o‘yin (aksiya) larda avtomat tarzda ishtirok etadi;
5.6. Omonatchi kafolatlaydi:
(a) u BMT, Yevropa Ittifoqi, OFAC SDN, Non-SDN List, UK Sanctions List, Asset freeze sanksiyalar ro‘yxatlariga kiritilgan shaxs emasligini;
(b) omonat bo‘yicha pul mablag‘lari sanksiyalar ostidagi shaxslarning faoliyati bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘lgan manbalardan olinmaganligini;
(c) u boshqa (jumladan, sanksiyalangan yoki affillangan) shaxsning topshirig‘i bo‘yicha emas, balki o‘z nomidan operatsiyalarni amalga oshirayotganini.
5.7. Omonatchi o‘zining sanksiyaviy holatining har qanday o‘zgarishi yoki ushbu Shartnomaning bajarilishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan holatlar haqida Bankni darhol xabardor qilish majburiyatini oladi.

6. Omonatchining huquqlari.

6.1. Omonatga qo‘yilgan mablag‘larni shaxsan o‘zi tasarruf qilish yoki bunday huquqni qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlangan ishonchnoma asosida uchinchi shaxslarga taqdim qilish;
6.2. Bankdan muddatli omonatni to‘liq talab qilish;
6.3. "Agrobank mobile" ilovasi yordamida omonat va unga hisoblangan foizlarni ko‘rib borishi;
6.4. Omonat daftarchasi yo‘qotilgan yoki yaroqsiz holga keltirilgan bo‘lsa, yangi omonat daftarchasini berishni so‘rab bankka murojaat qilish;

7. To‘lovlarni o‘tkazish tartibi.

7.1. Omonat summasiga foizlar “Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ga (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023 yil 29 sentabrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3460) asosan omonat bankka tushgan kunning ertasidan boshlab, to u omonatchiga qaytarilgan yoki boshqa asoslarga ko‘ra omonatchining hisobvarag‘idan o‘chirilgan kundan oldingi kungacha yoziladi. Omonatchining hisobvarag‘i xatlanganligi oqibatida bank ushbu hisobvaraqdagi mablag‘lardan foydalana olmagan davr uchun foizlar yozilmaydi.

7.2. Omonatga hisoblangan foizlarni berish, omonatdan qisman yechish va omonatni to‘liq yopish amaliyoti mijoz tomonidan omonat daftarchasi hamda shaxsni tasdiqlovchi hujjat taqdim etgandan so’ng amalga oshiriladi. Omonatchining ishonchli vakili tomonidan notarial tasdiqlangan ishonchnoma taqdim etilganda, shuningdek, omonatchi vafot etgan taqdirda tegishli tartibda rasmiylashtirilgan meros guvohnomalari taqdim etilgan holatlarda omonat operatsiyalari bajariladi.

7.3. Muddati tugagandan so‘ng olinmagan omonatlar “talab qilib olinguncha omonat” turi sifatida tan olinadi va ularga foiz hisoblanmaydi.

7.4. Soliq rezidenti maqomiga ega bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasining Omonatchi norezidentlaridan omonat bo‘yicha to‘lanadigan foizlar summasidan akseptsiz tartibda va keyinchalik byudjetga o‘tkazgan holda O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi talablariga muvofiq Bank tomonidan to‘lovlar manbaidan soliq ushlab qolinadi.

8. Bank siri.

8.1. Bank O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq bank sirini tashkil etuvchi Omonatchi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni maxfiyligi va saqlanishini kafolatlaydi.

8.2. Bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlar “Bank siri to‘g‘risida”gi qonunning 8-moddasiga muvofiq mijozning o‘ziga, u vakolat bergan vakillarga, shuningdek, ushbu qonunda belgilangan tartibda boshqa shaxslarga taqdim etilishi mumkin.

9. Maxsus shartlar.

9.1. Omonatchi vafot etgan taqdirda, Bank notarial tasdiqlangan (meros) guvohnomaga asosan guvohnomada ko‘rsatilgan shaxslarga omonat summasi va unga hisoblangan foizlarni berishga haqli;

9.2. Bank “O‘zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish Qoidalari“ talablari asosida norezident jismoniy shaxslarning milliy va xorijiy valyutadagi hisobvaraqlariga kirim qilinadigan mablag‘larning qonuniyligini asoslantiruvchi hujjatlarni talab qilishi va norezident jismoniy shaxs ushbu ma’lumotlarni bankka taqdim etishi shart;

9.3. «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq:

- Bank Omonatlarni kafolatlash tizimining ishtirokchisi hisoblanadi;
- Jismoniy shaxslarning banklardagi milliy valyutasi va chet el valyutasidagi omonatlari kafolatlash obyekti hisoblanadi. Kafolatlash hodisasi yuzaga kelguniga qadar to‘lanmagan foizlarning qoldig‘i bundan mustasno. *(Qonunning 25-moddasi);*
- Bir bankda bir omonatchiga to‘lanadigan kompensatsiya miqdori quyidagini tashkil etadi:

a) kafolatlash obyekti qoldig‘ining to‘liq hajmini, agar uning miqdori ikki yuz million so‘m yoki undan kam bo‘lsa;

b) ikki yuz million so‘mni, agar kafolatlash obyektining qoldig‘i ikki yuz million so‘mdan ko‘p bo‘lsa. *(Qonunning 26-moddasi);*

- Kompensatsiya to‘lash muddati bankni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadan e’tiboran – 20 ish kuni mobaynida; 2026-yil 1-yanvardan boshlab –15 ish kuni mobaynida; 2027-yil 1-yanvardan boshlab – 7 ish kuni mobaynida;

9.4. Bank omonat muddati tugaganligi to‘g‘risida omonatchini ogohlantirishni o‘z zimmasiga olmaydi.

10.Korrupsiyaga qarshi kurashish tartibi.

10.1. Mazkur omonat shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda tomonlar, har qanday noqonuniy ustunlik yoki boshqa imtiyozlarni olish maqsadida, har qanday shaxslarga haq to‘lamaydilar, to‘lashni taklif qilmaydilar va hech qanday pul mablag‘lari yoki qimmatbaho

buyumlarni to‘lashga, shuningdek, amaldagi qonunchilikka muvofiq pora berish va olish, tijoratda pora evaziga og‘dirib olishga yo‘l qo‘ymaydilar.

10.2. Ushbu omonat shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vakillari, amaldagi qonunchilikka muvofiq pora berish va olish, tijoratda pora evaziga og‘dirib olish, shuningdek jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini va xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlarni sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

10.3. Agar Tomonlardan biri ushbu bandning har qanday qoidalarining buzilishi sodir bo‘lgan yoki sodir bo‘lishi mumkin deb gumon qilsa, tegishli tomon boshqa tomonni yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Yozma bildirishnomada tomon boshqa tomon, uning xodimlari yoki vositachilari tomonidan ushbu bandning har qanday qoidalari buzilishi sodir bo‘lgan yoki sodir bo‘lishi mumkin bo‘lganligini ishonchli tasdiqlovchi yoki ishontirish uchun asos bo‘ladigan faktlarga havola qilishi yoki materiallarni taqdim qilishi kerak.

11. Fors-major

11.1. Fors-majorga holatlarga quyidagilar kiradi (qonunchilikka muvofiq bulardan boshqa holatlar ham kiritilishi mumkin): yengib bo‘lmaydigan kuchlar — tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog‘liq bo‘lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko‘chki, bo‘ron, qurg‘oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko‘zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo‘lmaydigan va kutilmagan holatlar;

11.2. Fors-major haqida xabar berish. Agar shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish fors-major tufayli imkonsiz yoki qiyinlashsa, ushbu holat haqida zarar ko‘rgan taraf boshqa tarafni darhol 5 ish kuni ichida xabar berishi va shuningdek, tegishli dalillar bilan ta’minlashi zarur.

11.3. Muddatning uzaytirilishi. Fors-major holati yuzaga kelgan taqdirda, shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlarni bajarish muddati avtomatik ravishda fors-major davriga uzaytiladi. Agar fors-major holati 30 kundan ortiq davom etsa, har qanday taraf shartnomani to‘xtatish huquqiga ega bo‘ladi, shu bilan birga taraflarga qo‘shimcha majburiyatlar yoki kompensatsiyalar yuklatilmaydi.

11.4. Agar shartnomaga asosan majburiyatlarni to‘liq yoki qisman bajara olmasliklari fors-major holatlari tufayli imkonsiz yoki juda qiyinlashtirsa, taraflar ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarishdan ozod etilishlari mumkin.

11.5. Taraflarning majburiyatlari. Taraflar fors-major holatining oqibatlarini minimallashtirish uchun va shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni eng qisqa muddatda qaytadan bajarish imkonini yaratish uchun ma’qul harakatlarni amalga oshirishga majburdirlar.

11.6. Fors-majorning tugashi. Fors-major holati uni keltirib chiqargan holatlar bartaraf etilgan paytda tugagan deb hisoblanadi va ushbu holat haqida zarar ko‘rgan taraf boshqa tarafni darhol xabardor qilishi lozim.

11.7. Bunda shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish muddati Fors-major davom etgan davrga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

12. Taraflarning javobgarligi va nizolarni hal qilish tartibi.

11.1. Ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan, shartnoma shartlarini buzgan taraf O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi;

11.2. Shartnomaga o‘zgartirish kiritilishi, ijrosi va bekor bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan nizolar, o‘zaro muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda bank filiali joylashgan xudud bo‘yicha fuqarolik sudlarida ko‘rib chiqiladi;

11.3. Ushbu shartnoma 2 (ikki) nushada tuzilib, biri Bank filialida qolib, ikkinchisi Omonatchiga beriladi. Shartnomaning har ikkala nusxasi ham bir xil yuridik kuchga ega.

Ushbu omonatga doir axborotlar va shartnoma shartlari bilan tanishdim:_____

(Omonatchining imzosi)

Bank	**Omonatchi**
“**Agrobank**” ATB _____ filiali **manzili**: _____ **telyefon**: **Boshqaruvchi**: F.I.SH. (imzo) **Bosh hisobchi**: F.I.SH. (imzo) **Mas’ul hodim**: F.I.SH. (imzo) **Huquqshunos**: (imzo)	F.I.SH. **<name>** uy telyefon raqami **<phone_home>,** mobil. **<phone_mobile>** manzil **<address>** pasport ma’lumotlari **<pass_ser>** **<pass_num><pass_reg>** (imzo)

M.O’.

«Bank xizmatlari iste’molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risidagi nizomga
3b-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasidagi omonatlarni kafolatlash tizimi to‘g‘risida
AXBOROT

1.	**_____ ga** *(bank nomi)* **joylashtirilgan omonatlar kafolatlanishi**	Bankdagi omonatlar Omonatlarni kafolatlash agentligi tomonidan kafolatlanadi
2.	**Omonatlarni kafolatlash asoslari**	O‘zbekiston Respublikasining «Banklardagi omonatlarni himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni
3.	**Kafolatlash hodisasi**	Bankning tugatilishi (yopilishi)
4.	**Kafolatlanadigan omonatlar turi**	Talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar, shu jumladan bank kartalaridagi mablag‘lar, muddatli va jamg‘arma omonatlar, shuningdek mazkur omonatlar bo‘yicha hisoblangan foizlar
5.	**Kompensatsiya miqdori**	Bank tugatilganda har bir omonatchiga, omonat bo‘yicha hisoblangan foizlarni inobatga olgan holda, jami to‘lanadigan kompensatsiya miqdori 200 000 000 so‘mdan oshmaydi
6.	**Bir bankda omonatchining bir nechta omonatlari mavjud bo‘lgan taqdirda to‘lanadigan kompensatsiya miqdori**	Omonatning miqdori va valyutasidan qat’i nazar omonatchining ushbu bankdagi va uning filiallaridagi barcha omonatlari hisoblangan foizlar bilan jamlanadi va ular bo‘yicha to‘lanadigan kompensatsiyaning umumiy miqdori 200 000 000 so‘mdan oshmaydi
7.	**Bir nechta bank tugatilgan holda kompensatsiya miqdori**	Bir nechta bank tugatilgan taqdirda, mazkur banklarda omonatlari mavjud bo‘lgan omonatchi har bir bank bo‘yicha alohida tartibda 200 000 000 so‘mdan oshmagan miqdorda kompensatsiya olish huquqiga ega
8.	**Kompensatsiya to‘lash muddati**	Bankni tugatish (yopish) to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadan e’tiboran 20 ish kuni mobaynida: 2026 yil 1 yanvardan boshlab — 15 ish kuni; 2027 yil 1 yanvardan boshlab — 7 ish kuni.
9.	**Kompensatsiya to‘lanadigan valyuta**	Chet el valyutasida qo‘yilgan omonatlar bo‘yicha kompensatsiya bank tugatilgan (yopilgan) sanadagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank kursi bo‘yicha milliy valyutada (so‘mda) to‘lanadi
10.	**Bog‘lanish uchun ma’lumotlar**	**Omonatlarni kafolatlash agentligining manzili:** O‘zbekiston Respublikasi, 100027, Toshkent sh., Qoratosh ko‘chasi, 1 uy (O‘zbekiston Banklari Assosiasiyasi binosi; **Telyefon raqamlari:** +998 555 500 500 **el.pochta manzili:** info@uzoka.uz **veb-sayti:** fgd.uz

Omonatchi xabardor qilindi:
Sana va imzo _____